



IDIOLEKTNING O'RGANILISH TARIXIDAN

Isomiddinova Nargiza Jozilboy qizi

+998953930367

Nargizaisomiddinova16@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek dialektologiyasida maxsus o'rganilmagan tushuncha idiolekt haqida ma'lumot beriladi. Jahon dialektologiyasida idiolektning o'rganilishi va uning rivoji tilga olinadi. O'zbek dialektologiyasida idiolekt tushunchasini ochiqlash lozimligiga to'xtalinadi. Idiolekt mavzusi hozirgi kunning o'rganilishi kerak bo'lgan dolzarb masalalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: idiolekt, dialekt, o'zbek dialektologiyasi, leksika, fonema, shaxs shevasi, sotsiolekt.

Abstract: This article provides information about the idiolect, a concept that has not been specifically studied in Uzbek dialectology. World dialectology deals with the study and development of idiolects. In Uzbek dialectology, the concept of idiolect should be clarified. It is said that idiolect is one of the most important issues in the world today.

Key words: Idiolect, dialect, Uzbek dialectology, vocabulary, phoneme, personal dialect, sociolect.

Til har bir etnosni boshqa bir etnosdan ajratib turuvchi muhim va asosiy belgidir. Etnos nazariyasiga ko'ra ham til etnosni belgilab turuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi.



Ayni vaqtda til kishilarning asosiy aloqa vositasi sifatida ular o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni belgilovchi, ularni yuzaga chiqaruvchi hamda ana shu munosabatlar orqali rivojlanuvchi ijtimoiy tabiatga ega hodisadir. Ma'lumki, etnos shakllanishi jarayonida har bir etnosga xos til taraqqiy etib boradi. Muayyan bir etnos boshqa etnos bilan munosabatga kirishar ekan, avvalo, ushbu munosabatlar natijasi ularning tilida o'z ifodasini topadi. Har qanday fanning tadrijiy – evolyutsion tarzda rivojlanishi yangilik emas. Sharqda turkologiya, ayniqsa, dialektologiyaga XI asrdayoq Mahmud Qoshg'ariy, keyinchalik, Alisher Navoiy tomonidan tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, hozirda ham biz uchun ularning ilmiy qarashlari o'zbek tilshunosligining mayog'i sifatida qo'llanma hisoblanadi. Turkiy tillarning ilmiy o'rganilishi o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek dialektologiyasi sohasining rivoj topishida muhim o'ringa ega. Bu borada professor N.A.Baskakov va boshqa ko'plab turkolog olimlarning ilmiy-nazariy kontseptsionalari turkologiya va o'zbek shevashunosligi taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligiga oid ko'pgina nazariy va amaliy masalalarni hal qilish bevosita sheva va dialektlarni o'rganish bilan bog'liq. Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabatni belgilash masalasi shevalarni guruhlab, tarixiy-lingvistik aspektida atroflicha o'rganishni talab qiladi. Ana shu jihatdan qaraganimizda, o'zbek tilining shevalarida ham juda ko'p xarakterli til xususiyatlari saqlangan.

Dunyoning turli xalqlari adabiy tillarining rivojlanish tarixiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlarda asosan yozuvchilar tilini o'rganishga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Jonli xalq tilining yorqin namunasi sifatida dialektizmlardan badiiy adabiyotda turli maqsadlarda foydalaniladi. Xorijiy dialektologiyada **idiolekt** (u inglizcha so'z bo'lib, individual til degan ma'noni ifodalaydi) tushunchasi ham mavjud. U yakka shaxslarga xos bo'lgan nutqiy o'ziga xoslikni bildiradi. Professor S. Ashirboyev ta'kidlaganlaridek, har bir til egasining o'z shevasi me'yorlariga amal qilish bilan birga, o'z nutqi va lug'at boyligi, so'z tanlash tarzi bo'lib, bu ham dialektologiyaning o'rganish obyektidir. Shu



tarzda soʻz tanlash va qoʻllash har bir shaxsning idioslubini yuzaga keltiradi. Tildagi oʻziga xoslik, individuallik masalasiga eʼtibor qaratish lozimligini V.fon Gumboldt ham taʼkidlagan edi: “Hamma odamlar goʻyoki bir tilda soʻzlashadilar, shu bilan bir vaqtda har bir odamning oʻz tili bor. Jonli soʻzlashuv nutqni va alohida individuum nutqini oʻrganish zarur”. Dialektal lisoniy shaxs diskursining oʻziga xosligini tadqiq qilgan Y.V. Ivansova koʻpgina hollarda, maʼlumot beruvchining, yaʼni dialektal lisoniy shaxsning soʻrovlari maishiy soha bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi. Qishloqda, mebelsiz uyda yashaydigan qishloq ayoli lisoniy shaxsining dialektal asoslarini tahlil qilganda maishiy leksika ustun boʻlib, doimiy yordam soʻrab murojaat qilish yolgʻiz keksa ayolning yoshi, jismoniy holati va turmush sharoiti bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi. Tabiiyki, uning soʻrovlari, birinchi navbatda, shaharda, qishloq doʻkonida yoki qishloq aholisidan mahsulot sotib olish, uy xoʻjaligini saqlash bilan bogʻliq. Haqiqatdan ham dialektal lisoniy shaxs har bir shaxsning dunyoqarashi, yashash tarsi, holati, yoshi, ehtiyojlari bilan bogʻliq holda yuzaga chiqadi. Idiostil tushunchasi har bir yozuvchining til egasi sifatidagi imkoniyatlarini aks ettiradi. Adabiyotning qatʼiy qonunlari bilan cheklanmagan yozuvchilar adabiy til meʼyorlari, til birliklarining ichki, faqat potensial amalga oshirilishi mumkin boʻlgan imkoniyatlarini ham badiiy matnda koʻrsatishi mumkin. Muallif tilini, aniqrogʻi, yozuvchining individual uslubini oʻrganish adabiyotshunoslik va tilshunoslik oʻrtasidagi chegara sohasidir. Biroq bu fanlarning har biri bir xil mavzuga ega boʻlgan tadqiqot obyektiga turli tomonlardan yondashadi. Tilshunoslik, eng avvalo, til vositalarini tanlashning oʻziga xosligini va bunday oʻziga xoslikning izchilligini koʻrib chiqadi. Biroq yozuvchining individual uslubi muammosi bu bilan cheklanmaydi. Sof lingvistik tahlildan tashqariga chiqadigan baʼzi savollar til vositalarini tanlashni oldindan belgilab beradi. Idiostil atamasiga yondosh qoʻllanuvchi idiolekt atamasi ham borki, mazkur atamalarining qoʻllanilishi va ular ifoda etgan tushunchadan kelib chiqib, mazkur atamalar ostida qanday hodisalar tushunilishi borasida tilshunoslikda turlicha qarashlar mavjud, Bir guruh olimlar bu ikki tushunchani bir hodisa deb qaraydilar. Til



vositalarini uslubiy tahlil qilishda ularning nutq ichida ma'lum bir maqsad uchun qo'llanilishi, so'z qo'llashdagi me'yorlar, sintaktik qurilmalarning o'ziga xos shakllaishiga e'tibor qaratmay turib yozuvchi idiositilini aniqlab bo'lmaydi.

Muallif idiositili tilni yangi birlik va vositalar bilan boyitishda muhim manba sanaladi. Hozirgi zamon tilshunosligida an'anaviy strukturalizm metodlari o'zlashtirilgan holda ijodkor uslub va tili, muallifning badiiy olami, dunyoni anglashi va aks ettirishida o'ziga xoslik masalasi muhim sanaladi. Idiositil va idiolekt tushunchasi tilshunoslikda keng tadqiq qilingan. Ko'pincha tadqiqotchilar bu masalaga uslubshunoslik nuqtayi nazaridan yondashadilar. Muallifning idiositili nafaqat matndagi ma'lumotlarning tabiatida, balki uni lingvistik tasvirlash usullarida, "o'quvchini muallif nazarda tutgan ma'nolariga jalb qilish" xususiyatlarida ham paydo bo'ladi.

Demak, idiolekt tushunchasi ostida voqelikni subyektiv idrok etish tufayli muallifning individual prinsipining namoyon bo'lishini tushunish kerak, bu esa matn maydonida muallifning dunyoqarashini o'zida mujassam etgan badiiy vositalarni tanlash bilan tavsiflanadi. Tilshunoslikdagi idiolektning zamonaviy muammolari haqida gapirganda olimlarning idiolekt nazariyasi haqidagi fikrlariga murojaat qilaylik. Biz u o'rganilayotgan sohalarning xilma-xilligi atamaning yagona tushunchasini ajratib ko'rsatishga imkon bermasligini aniqladik. Shu nuqtayi nazardan, muammolardan biri sifatida "idiositile" tushunchasiga aniq ta'rifning yo'qligi deb ta'riflash mumkin. Idiositilni maxsus badiiy tizim sifatida tahlil qilishning turli zamonaviy yondashuvlari, asosan, muallifning idiolektini modellashtirish va uning ma'nolar tizimini o'rnatishning mumkin bo'lgan usullarini yaratishga qaratilgan. Idiolekt muammosiga oid ko'plab tadqiqotlarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelamizki, ko'plab tilshunoslar idiolekt tushunchalari va yozuvchining uslubiy afzalliklarini bir butunlikda birlashtiradilar. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, "idiositile" atamasi tadqiqotchilarni faqat bir tomondan qiziqtiradi, ular buni "bu muallifning uslub" deb talqin qilishadi. Bizning



fikrimizcha, idiolekt bu muallifga xos semantik maydonni tashkil etuvchi matn yaratuvchi xususiyatlar tizimidir.

Tilshunoslikda idiolekt va idistil haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, Z.Y. Turayevaning ta'kidlashicha, idiolekt har qanday til shaxsiga xos bo'lsa, "yozuvchining o'ziga xos idiotsili milliy til tizimi bilan belgilanadi". Tilshunoslikda lisoniy shaxs masalasi bilan jiddiy shug'ullangan B.I.Karasikning ta'kidlashicha, yozuvchining, shu jumladan, idiolekti lingvistik va kommunikativ kompetensiyada, muloqot vositalarini ongli ravishda tanlashda, til qobiliyati va didida namoyon bo'ladi. Haqiqatdan ham til til egalari uchun umumiy bo'lsa-da, undan foydalanish jarayonida tildan foydalanuvchi shaxs alohida lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Dialektizmlar idiostilni ko'rsatishda muhim vosita sanaladi. O'zbek adabiyotida mahoratli yozuvchilar dialektizmlardan badiiy matnda qahramon nutqini individuallashtirishdagina foydalanmaydilar. Idistilning o'ziga xosligini ta'minlashda dialektizmlardan tashqari so'zlarni biriktirish, ular o'rtasidagi sintaktik aloqaning turli-tuman bo'lishiga e'tibor qaratish muhimdir. Badiiy adabiyotda shevaga oid elementlarni berish qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish uchun xizmat qiladi. Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashda dialektal omil sifatida faqat shevaga oid so'zlarning o'zini olish to'g'ri emas. Qahramonning gap tuzishi, nutq jarayonida qo'llagan sintaktik birliklari ham uning lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xosligini belgilab beradi. Badiiy matnda qo'llaniladigan dialektizmlarning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik-stilistik dialektizm kabi turlari bo'lib, sintaktik-stilistik dialektizm o'ziga xos gap qurilishi, sintaktik uslubiy vositalarning so'zlovchi kommunikativ maqsadiga mos tanlanishida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, idiolekt bu odamning o'ziga xos nutq usulidir. Har bir insonning boshqa odamlarning nutqidan farq qiladigan o'ziga xos idiolekti bor. Dialekt - bu bir guruh odamlar tomonidan so'zlashadigan tilning versiyasi. Idiolekt ancha kichikroq - bu ma'lum bir odamning ma'lum bir vaqtda, boshqalardan farqli ravishda gapirish usuli. Bu



soʻz asosan tilshunoslar tomonidan bir kishining ikkinchi kishidan nutqdagi farqlarni muhokama qilishda qoʻllaniladi. Hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri aynan idiolekt tushunchasini ochiqlashdir. Uning maʼnosi va xususiyatlarini oʻrganish. Jahon dialektologiyasida amalga oshirilgan tadqiqotlarni oʻrgangan holda oʻzbek dialektologiyasi yangi yoʻnalish sifatida idiolektni olib kirish eng asosiy vazifalardan biridir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev F. A. Oʻzbek tili leksikasining baʼzi bir masalalariga doir
2. OʻzFA til va adabiyot institutining asarlari. -Toshkent, 1949.
3. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. -Toshkent, “Nodirabegim”,
4. Enazarov T. Oʻzbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. -Toshkent, Mahalla va oila, 2021.
5. Lingvistik ensiklopedik lugʻat. - M.: Sovet Entsiklopediyasi.
6. V. N. Yartseva. 1990 yil.